



ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK NUTRQIDA KOMMUNIKATIV NORMALAR DINAMIKASI

Qodirova Mashrabxon Kozimjanovna

Andijon davlat chet tillari institute magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ingliz va o'zbek nutqidagi kommunikativ normalar o'zgarishi, ularning ijtimoiy, madaniy va tilshunoslik omillari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Nutq odoblari va kommunikativ strategiyalar milliy mentalitet, axborot texnologiyalari va global tendensiyalar ta'sirida qanday shakllanayotganiga e'tibor qaratiladi. Mavzuga oid misollar va lingvopragmatik tahlillar orqali ikki tilning kommunikativ xususiyatlari solishtirilib, ularning dinamik rivojlanish yo'nalishlari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar.** Kommunikativ normalar, pragmatika, madaniyatlararo muloqot, ingliz tili, o'zbek tili, tilshunoslik, nutq madaniyati, til dinamikasi*

Kirish. Har bir til faqat aloqa vositasi emas, balki jamiyatning madaniy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy strukturasi ifodasi hisoblanadi. Til vositasida amalga oshiriladigan kommunikatsiyada muayyan qoidalar – kommunikativ normalar mavjud. Ular doimiy ravishda yangilanib, zamon talablari va texnologik taraqqiyot bilan birga rivojlanadi. Ushbu maqolada zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida yuz berayotgan kommunikativ normalar dinamikasi tahlil qilinadi.

Bugungi globallashtirish jarayonida turli tillarda so'zlashuvchilarning kommunikativ xatti-harakatlari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Har bir til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning mentaliteti, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy xulqining ko'zgasidir. Ingliz va o'zbek tillarida bu o'zgarishlar turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Jumladan, ingliz tilida qisqa va aniq muloqotga intilish kuchaysa, o'zbek tilida esa milliy an'analarni saqlagan holda soddalashtirish tendensiyasi



kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlar turli omillar – texnologik rivojlanish, yoshlar madaniyati, til o'rgatish uslublari va madaniyatlararo muloqotlar ta'sirida yuzaga kelmoqda.

Asosiy qism. Kommunikativ normalarning nazariy asoslari til dinamikasida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Kommunikativ normalar bu – jamiyatda qabul qilingan muloqot odoblari, strategiyalari va til vositalaridir. Kommunikativ normalar til orqali muloqot jarayonida amal qilinadigan ijtimoiy va madaniy me'yorlar tizimi bo'lib, ular nafaqat muloqot uslubini belgilaydi, balki til ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hurmat, odob-axloqni ham aks ettiradi. Misol uchun, ingliz tilida “Sorry”, “Excuse me” kabi iboralar juda keng ishlatilsa, o'zbek tilida “Kechirasiz”, “Iloji bo'lsa...” kabi iboralar unga muqobil bo'ladi. Shuningdek, har bir til jamiyatda kommunikatsiyaning nozik jihatlarini ham belgilaydi. Brown va Levinson (1987) o'zlarining “Politeness Theory” nazariyasida har bir til foydalanuvchisi “jobiy” va “salbiy” yuzni himoya qilishga harakat qilishini ta'kidlaydi. Ingliz tilida bu strategiyalar qisqa, izchil va bevosita ifodalanadi. O'zbek tilida esa har doim ham to'g'ridan-to'g'ri gapirish odob doirasiga mos kelmaydi.

O'zgaruvchan kommunikativ strategiyalar haqida to'xtaladigan bo'lsak, yoshlar va texnologiya omili zamonaviy yoshlar orasida ingliz tilidagi qisqartmalar (ASAP, BRB, BTW), emoji, sticker, GIF kabi vositalar muloqot vositasiga aylangan. O'zbek yoshlar ham “ok”, “tnx”, “yo'q”, “k” kabi qisqartmalarni faol ishlatishmoqda. Natijada yangi kommunikativ submadaniyat shakllanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali sodda, tez va hissiy ohangdagi muloqotlar kengaydi. Bu holat ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan iboralar (“No way!”, “Seriously?”, “You bet!”) ning o'zbek tiliga kirib kelishiga olib kelmoqda.

Madaniyatlararo muloqot va tilga bo'lgan munosabatlarda madaniyatlararo muloqotlar ko'paygani sari til foydalanuvchilari o'z nutq uslubini moslashtirishga majbur bo'lishmoqda. Ingliz tilida madaniyatlararo aloqa “low-context” asosida,



ya'ni to'g'ridan-to'g'ri va aniq shaklda olib boriladi. O'zbek tili esa "high-context" muloqotni afzal ko'radi, ya'ni kontekst, imo-ishora va taxminlarga tayangan muloqot.

Pragmatika nuqtai nazaridan, ingliz tilida yuzaga kelgan "politeness theory" Brown va Levinson nazariyasiga ko'ra, har bir kommunikator o'z obro'sini saqlab qolishga intiladi. Shuning uchun ingliz tilida taklif qilishda "Would you mind...", "I was wondering if..." kabi yumshoq shakllar qo'llaniladi. O'zbek tilida esa, ehtirom va katta-kichiklik me'yorlari doirasida iltimos shakllari keng qo'llaniladi: "Iltimos, yordam bera olasizmi?" yoki "Marhamat qilib, o'tiravering."

Kommunikativ normalarning ijtimoiy va axloqiy funksiyasida kommunikativ me'yorlar nafaqat tilni, balki jamiyatdagi axloqiy tizimni ham mustahkamlaydi. O'zbek tilidagi "hurmat bilan muomala qilish" qadriyati hali-hanuz mavjud, biroq bu qadriyat yoshlar orasida universal emas. Ba'zilar ingliz tilidan kirib kelgan "informal" ohangni ijobiy innovatsiya sifatida qabul qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kommunikativ normalar dinamik rivojlanmoqda va bu jarayonda ingliz va o'zbek tillarining o'ziga xos yondashuvlari mavjud. Ular turli madaniy asos, til tuzilishi va jamiyat qadriyatlari bilan belgilanadi. Ingliz tilida muloqot pragmatizmga asoslangan bo'lsa, o'zbek tilida madaniy va axloqiy kontekst asosiy rol o'ynaydi.

Lingvopragmatik vositalar – bu tilning kontekstga moslashuvi, ya'ni gapning aytilish usuli, ohang, turtki va maqsadga muvofiqligi. Bugungi kunda ingliz tilidagi qisqartmalar va norasmiy iboralar o'zbek tiliga ham kirib kelmoqda. Bu holat ko'pincha tarjima orqali yoki global madaniyat ta'siri orqali yuz beradi. Masalan, "No problem" iborasi o'zbek tilida "Muammo yo'q" yoki "Xo'p bo'ladi" shaklida so'zlashuvga o'tdi. Bundan tashqari, lingvopragmatik vositalarning o'zgarishida zamonaviy muloqotda lingvopragmatik vositalar, ya'ni muayyan kontekstda ma'no va maqsadni aniqlovchi unsurlar o'zgarib bormoqda. O'zbek tilida ilgari odob-axloqning yuqori darajasini ifodalovchi iboralar ("Marhamat



qilib...”, “Ijzat bersangiz...”) bugun qisqartirilgan yoki ingliz tilidan olingan muqobillarga o‘rin bermoqda (masalan, “Ok”, “Let’s go”, “Sure”). Bu esa til muomalasining funksional jihatlariga ta’sir qilmoqda. Ingliz tilidagi ‘hedging’ (ehtiyotkorlik) strategiyalari – ‘maybe’, ‘sort of’, ‘I guess’ kabi – o‘zbek tilida hozircha keng qo‘llanmaydi, biroq ayniqsa yoshlar orasida bu strategiyalarga qiziqish ortib bormoqda.

Tarjima va til o‘zgarishlarida ham kommunikativ normalarni quyidagi hlatlarda ko‘rishimiz mumkin. Kommunikativ me‘yorlarga ta’siri filmlar, seriallar va internet kontenti orqali inglizcha kommunikativ odoblar o‘zbek nutqiga singmoqda. Masalan, “Take it easy” iborasi o‘zbek tilida “Xotirjam bo‘l”, “O‘zingni tiygin” tarzida ishlatiladi. Shuningdek, “Don’t take it personally” tarjimasini “Shaxsiy qabul qilmang” degan shaklga ega bo‘lib, bu ibora o‘zbek kontekstida yumshoqroq aytiladi: “Gapimni og‘ir olmang.”

Tarjima va til o‘zgarishlariga kelsak, kommunikativ me‘yorlarga ta’siri Turli janrdagi tarjima matnlar ham kommunikativ normalarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, filmlar, seriallar va internet matnlari ko‘pincha ingliz tilining kommunikativ odoblarini bevosita o‘zbek tiliga o‘tkazadi. Bu holat ba’zan o‘zbek tilining stilistik va madaniy me‘yorlariga zid keladi. Masalan, ingliz tilidagi ‘Don’t take it personally’ iborasi so‘zma-so‘z tarjimada “Buni shaxsiy deb qabul qilma” tarzida yangraydi. Biroq bu iboraning madaniy konteksti o‘zbek tilida boshqacharoq ifodalanadi, ko‘proq “Niyatim yomon emas edi” kabi yumshoqroq shaklda aytiladi. Bu esa tarjimaning faqat lingvistik emas, pragmatik jihatlarini ham hisobga olish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Xulosa. Zamonaviy ingliz va o‘zbek tillarida kommunikativ normalar zamon talablari, texnologik taraqqiyot va madaniy almashinuvlar natijasida sezilarli o‘zgarishga uchramoqda. Har ikki tilning pragmatik imkoniyatlari til ishtirokchilarining ehtiyojlari va sharoitlariga moslashmoqda. Kelajakda bu o‘zgarishlar yanada chuqurlashadi va yangi kommunikativ modelalar paydo



bo‘ladi. Bu esa tilshunoslar, tarjimonlar va til o‘rganuvchilar uchun dolzarb ilmiy yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wierzbicka, A. (1991). Cross-cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction.
2. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage.
3. Xudoyberganova, D. (2010). Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya.
4. Crystal, D. (2006). Language and the Internet.
5. Karimova, Z. (2021). Zamonaviy nutq uslubi va madaniyati.
6. Yuldashev, Q. (2018). O‘zbek tilida pragmatik birliklar.
7. Scollon, R., & Scollon, S. (2001). Intercultural Communication: A Discourse Approach.
8. Holmes, J. (2013). An Introduction to Sociolinguistics